

BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI SHAROITIGA MOSLASHISHINI TA'MINLASH YO'LLARI

Abdubannonova Bibixojar Iqboljon qizi

Qo'qon universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi, 2-kurs talabasi

+998 90 084 02 02

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20355254>

Anatatsiya: Maqolada bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashuvi va bu jarayonda yuzaga keladigan psixologik va pedagogik qiyinchiliklar yozilgan. Moslashuv jarayonini yengillashtirish uchun ota-onalar va pedagog o'rtasida hamkorlik ko'rsatilgan. Shuningdek, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi va bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish uchun kerakli tavsiyalar yozdim.

Kalit so'zlar; maktabgacha ta'lim, bolalar, moslashuv, ota-ona, innovatsion yondashuvlar, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы адаптации детей к дошкольной образовательной организации, а также психологические и педагогические трудности, возникающие в данном процессе. Для облегчения процесса адаптации показана необходимость сотрудничества между родителями и педагогами. Также описаны развитие системы дошкольного образования в Узбекистане и рекомендации по адаптации детей к социальной среде.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети, адаптация, родители, инновационные подходы, социальная адаптация.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga (bolalar bog'chasiga) moslashuvi ularning keyingi ta'lim jarayonlariga muvaffaqiyatli qo'shilishi uchun muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar ilk bor oilaviy muhitdan tashqariga, yangi muhitga kirisha ekan, ular psixologik va jismoniy jihatdan o'zgarishlarga duch keladilar. Agar moslashuv jarayoni yaxshi kechsa, bola bog'chada o'zini xotirjam his etadi, tengdoshlar bilan birgalikda o'yinlar uynashadi va mashg'ulotlarni yaxshi o'zlashtiradi. Shuning uchun bolani bog'cha sharoitiga moslashtirish masalasi davlat siyosati darajasida dolzarb sanaladi

Bog'cha yoshidagi bola uchun uy muhitidan ajralib, notanish tarbiyachilar va ko'plab yangi tengdoshlar orasiga tushishi sezilarli ruhiy stressni keltirib chiqaradi.

Ayniqsa 1–3 yosh bolalar onadan ajralishga juda ta'sirchan bo'lib, yangi muhit va odamlar, tengdoshlari, ularda qo'rquv hissini uyg'otishi tabiiy jihat. Yana bolalarda xar hil kasaliklar masalan; shamollash grip bo'lishi mumkin bu xolatda ota-onalar qurqib ketadilar basilar esa bolalarini bog'chadan olishadi. Aslida bunday holat yangi kelgan hamma bolalarda duch kelishi mumkin vaxima qilish shart mas. Bolalar ko'pincha oson moslashish taxminan 10–15 kun ichida bola yangi muhitga ko'nikadi; o'rtacha moslashish 1 oy atrofida bu xolat kamdan kam uchraydi qiyin (uzoq) moslashish 2 oydan 6 oyfgacha yoki undan uzun davom etadi. bu xolat esa kamdan kam xolda buladi. Bolalarning bog'chaga moslashuvini yengillashtirish uchun pedagogik va psixologik amaliyotda qo'llaniladigan qator usullar mavjud. Ulardan eng muhimi ota-ona va pedagog hamkorligidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bog'cha davriga o'tishda bola uchun eng og'riqli lahza bu ota-onadan

ajralish payti. Shu bois, tarbiyachilar va psixologlar ota-onalarga moslashuv davrida to'g'ri muomala qilish bo'yicha maxsus tavsiyalarni ishlab chiqishgan. Maktabgacha ta'lim agentligi

mutaxassislarining tavsiyalariga ko'ra, ota-ona quyidagilarga e'tibor berishi kerak: bolani bog'chaga olib kelganda allaqachon u bilan xayrlashmasdan, “sezdirilmasdan qochib ketmaslik” lozim – bola bu holatda o'zini tashlab ketilgandek his qilishi va qo'rquvi ortishi mumkin; aksincha, bolaga xotirjam ohangda xayrlashib, qaytib kelish vaqtini tushuntirish tavsiya etiladi.

Bolalarni qiziqtiruvchi rol o'yinlari, musiqali mashg'ulotlar, jismoniy harakatli o'yinlar orqali bog'cha muhitini jonlantirish ularning stressini kamaytiradi – chunki o'yin orqali bola o'z his-tuyg'ularini chiqaradi, qo'rquv yoki g'amginlikni unutib, faollashadi

Ta'lim mazmuniga zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. 2018-yilda ishlab chiqilgan yangi davlat o'quv dasturi “Ilk qadam” maktabgacha ta'limning innovatsion kontsepsiyasini nazarda tutadi. Unda bola markazli ta'lim, o'yin orqali o'rgatish, STEAM elementlarini bog'cha yoshidan boshlab tatbiq etish kabi usullar kiritilgan. Xususan, aksariyat bog'chalarda didaktik o'yinlar interfaol mashg'ulotlar ko'paytirilib, an'anaviy ko'proq tarbiyachi gapiradigan darslardan voz kechilmoqda.

Bolani bog'chaga tayorlashda ota-onaning roli muhim. Uydabog'cha haqida ijobiy tasavur hosil qilish, tarbiyachi va muassasa bilan yaqin hamkorlik qilish kerak. Bolani birinchi qisqa vaqtga qoldirish, keyin asta sekin uzaytirish orqali moslashuv jarayoni yengillashtiriladi. Bolaga yaxshi munosabat, mexr, tushinish va qo'llab quvatlash uning o'zinixavfsiz xis qilishga yordam beradi. Asosan o'yin, rasm chizish, musiqa, ertaklar va boshqa faoliyatlar bolaning etborini tortadi, bog'chaga qiziqishini oshiradi. Uyg'onish, ovqatlanish, dam olish va o'yin vaqtida rioya qilish bolaga yangi tartibga ko'nikishga yordam beradi. Bolani tinglash, uning xislarini tushinish va qabul qilish moslashuv jarayoni yengillashtiradi. Tarbiyachilar va ota-onalar bir xil talab va yondashuvda bo'lishi, bolaga barqarorlikni beradi.

Xulosa

Bolalarning maktabgacha talim tashkilotiga moslashuviularning ruhiy salomatligini va keyingi ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli qo'shilishi uchun muhimdir. Moslashuv davrida bola yangi muhit qoidalar va ortaglari bilan tanishadi. Ota-ona va pedagoglarning hamkorligi, mehr-muhabbat, sabr-toqat va to'g'ri yondashuv moslashuvni yengillashtiradi. Har-bir bola individual bo'lib moslashuv vaqtini turlicha bo'lish mumkin. Muhimi bolani tushinish qollab quvatlash va unga ishonch uyg'otish. To'g'ri tashkil etilgan moslashuv jarayoni bola uchun bog'chani quvonchi, qiziqarli va xavfsiz joyga aylanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Maktabgacha ta'lim agentligi (2023). “MTTga moslashuv: ko'z yoshlarni quvonchga tezroq aylantirish uchun tavsiyalar.” *MPE.uz* rasmiy sayti, 15-avgust 2023
2. Hamroyeva M. (2024). “Farzandingizga bolalar bog'chasiga moslashishga qanday yordam berish kerak.” *Proza.uz* internet maqolasi, 23-iyul 2024
3. Allaberdiyeva X., Diyorova D. (2023). “Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida milliy qadriyatlarning o'rni.” *Xalqaro ilmiy jurnal “Nauchnyy impuls”*
4. Ro'ziqulova Sh. Umidjonovna Bolalarni Maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitiga moslashishini ta'minlash.